

XORIJIY DAVLATLAR XARIDLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

E.Amirov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

B.Nazarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Annotatsiya:

Ushbu maqola jahonning taraqqiy etgan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning (Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya va boshqalar) davlat xaridlarini amalga oshirish amaliyoti hamda qonunchiligining ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Davlat xaridi, davlat buyurtmachisi, davlat xaridlarining sub'ektlari, davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma, maxsus axborot portali, xarid qilish tartib-taomili, elektron davlat xaridlari, xaridlar to'g'risida e'lon.

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari davlat xaridlari, shu jumladan davlat xaridlari xizmati borasida ko'p yillik amaliy va nazariy-uslubiy tajriba ega hisoblanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridlarini tartibga solishga oid mustahkam qonunchilik bazasi mavjud. Ularning tajribasi va qonunchiligini o'rganish, o'z navbatida, O'zbekistonda ushbu munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda o'tgan yillar davomida elektron savdolarini tashkil etish orqali davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun hukumatimiz tomonidan ularni takomillashtirish choralari ko'rildi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida tovarlar(ishlar, xizmatlar) xaridi bo'yicha idoralararo tender komissiyalari, ya'ni ixtisoslashgan tarmoq ekspert kengashlari tashkil etildi. O'zbekistonda davlat xaridi tizimini takomillashtirish xalqaro tajribalarni o'rganish va eng yaxshi jahon amaliyotini qo'llashga yo'naltirilgan. Maqsadi va prinsiplari (raqobat, oshkoralik, ob'ektivlik, samaradorlik) umumiy bo'lishiga qaramasdan zamonaviy yo'nalishdagi davlat xaridi tizimi har bir davlatda turlichadir. Jumladan, O'zbekistonda ham, bu tizimdagi aniq muammolarni har bir davlatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga qarab aniqlash mumkin.

Yevropa Ittifoqida progressiv davlat xaridlari tizimi amal qiladi va quyidagiyo'nalishlarning afzalliklaridan foydalaniladi (Abramova, Tkachenko, 2015):

- elektron vositalardan keng foydalanish;

- kichik va o'rta biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash;
- tovarlarning to'liq hayotiylik sikli hisobi;
- ijtimoiy mehnat munosabatlarini qo'llash;
- ekologik talablarga rioya qilish;
- korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;
- xarid ishtirokchilariga rasmiy talablarni kamaytirish;


nazorat qilishning moslashuvchan me'yoriy-huquqiy usulini ishlab chiqishi. Davlat xaridi tizimida islohotlar olib borayotgan davlatlar o'zlarining talablaridan kelib chiqqan holda, o'ziga mos yo'nalishlarni tanlashi mumkin. Eng yaxshi amaliyotni tanlash va qonunchilikni uyg'unlashtirish va birlashtirish uchun qo'llash mumkin bo'lgan jahon amaliyotini batafsil o'rganish talab qilinadi. Jahonda iqtisodiyotni integratsiyalashuvi jarayoni kuchaygan davrda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qiyosiy tahlil usuli qo'llaniladi, bu usul davlat xaridlarisohasini ham chetlab o'tmagan. Qiyosiy tahlil tadqiqotlari davlat xaridi tizimini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlarini tushunish, muammoli jihatlarni aniqlash, muqobil yechimni topish va eng yaxshi amaliyotni tanlash uchun qiyosiy tahlil usuli yetarli darajada qulay bo'lgan usuldir. Jahonda davlat xaridlari tizimini rivojlantirishga qaratilgan loyihalardan biri Jahon bankining "Davlat xarid tizimining qiyosiy tahlili" loyihasi ahamiyatga molikdir. Ma'lumotlarning shaffofligi, davlat xaridlariga oid bo'lgan risklarni kamaytirish uchun juda muhim. Shaffoflik tadbirkorlik sub'ektlari va kichik biznes vakillarining barcha imkoniyatlar teng bo'lgan raqobat muhitida raqobatlashishida muhim rol o'ynaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotga muvofiq davlat xaridi tizimini qiyosiy tahlil qilishda 3 ta asosiy mezon mavjud, ular:

- mavzuning mazmuni
- ya'ni ma'lumotlarning tematik va tarkibiy qamrovi;
- metodologik
- so'rovnomalarni ishlab chiqish va yig'ish;
- cheklovlar – ma'lumotlarni talqin qilish va foydalanish bilan bog'liq.

Tahlilni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni yig'ish bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ma'lumotlarni ishonchliligini tekshirish mexanizmi ishlab chiqiladi. Xarid ishtirokchilari bilan internet yoki telefon orqali axborot almashish natijasida, ma'lumotlarni yig'ish bosqichlari o'rtasidagi farqlarni kamayishiga erishiladi. Mutaxassislarining keng qamrovli izlanishlari va tahlillari asosiy natijalar, shuningdek, ma'lumotlar sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon banki tomonidan qiyosiy tahlil o'tkazish uchun ma'lumotlarni har yili yangilab borish

rejalashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. “Davlat xaridi tizimining qiyosiy tahlili” loyihasining yillik sikli²⁴

Davlat xaridlarida oshkoralik tamoyillari asosiy o‘rindaligini xalqaro hujjatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. BMTning korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi, UNCITRAL (“United Nations Commission on International Trade Law” BMT komissiyasining xalqaro savdo to‘g‘risidagi) qonuni, tovar va xarid oshkoraligini oshirish prinsiplari, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining davlat xaridlarida shaffoflik standartlari kabi xalqaro hujjatlarda shaffoflikni oshirish va rivojlantirish bo‘yicha standartlar keltirilgan.

Davlat xaridi to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlarning shaffofligi va oshkoralik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maxsus reglamentlar, yillik xarid rejasi, tuzilgan shartnomalar, hamkorlik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va xaridlar statistikasi ma‘lumotlari shaffoflik va oshkoralik darajasini belgilab beradi.

Masalan, Saudiya Arabistonida barcha davlat tenderlarini ikki mahalliy gazetada va elektron axborot vositalarida rasman e‘lon qilinadi. Hozirgi vaqtda G20 a‘zosi bo‘lgan ko‘plab davlatlarda xarid qoidalari va tender qatnashchilarining umumiy ma‘lumotlar internet orqali e‘lon qilinadi. Masalan, Avstraliyada xaridlar to‘g‘risida hukumatning “Xaridlar haqida ma‘lumot berish tizimi” (AusTender) orqali xarid ma‘lumotlari e‘lon qilinadi.

Hukumatning xaridlari axborot tizimi (AusTender)da tuzilgan shartnomalar, mamlakatning xarid imkoniyatlari va yillik xarid rejasi hamda tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilarining oldindan tasdiqlangan ro‘yxati va tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ma‘lumotlarni e‘lon qilishlari shart. Avstraliya davlat xaridi tartibigamuvofiq, davlat korxonalari 10 000 Avstraliya dollari miqdoridagi shartnoma shartlari hukumatning xaridlar axborot tizimi (AusTender)da e‘lon qilishlari talab etiladi.

Kanada, Buyuk Britaniya, va AQSh kabi davlatlarda xarid jarayoni ishtirokchilariga shartnoma tuzish va qaror qabul qilish bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

Buyuk Britaniyaning og‘zaki debrifingi - Buyuk Britaniyaning amaldagi qoidalariga binoan shartnoma qiymati Yevropa Ittifoqining xaridlarni amalga oshirish limiti (qiymati)dan oshgan nomzodlar uchun debrifing o‘tkaziladi. Shuningdek, belgilangan limiti (qiymati)dan kam bo‘lgan shartnomalar uchun hamtezkor debrifing o‘tkazish tavsiya etiladi.

Debrifing – shaxsan, telefon yoki videokonferensiya aloqa orqali, shartnoma tuzilganidan so‘ng 15 kun ichida o‘tkaziladi. Debrifing sessiyasiga xaridlarda ishtirok etgan xarid jarayonining yetakchi

xodimlari raislik qiladi. Debrifingda muhokama qilinadigan masalalar asosan xaridlarning mohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Elektron xaridlar – axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini davlat xaridlari jarayonida qo‘llash, ya‘ni xarid jarayoniga qo‘shilishni osonlashtirish va raqobatni kuchaytirish vositasidir. Bu texnologiya ma‘muriy to‘siqlar kamayishi hisobiga xarajatlarni va xarid jarayonini qisqartirishga yordam berishi mumkin.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan davlatlarning ko‘pchiligida oddiy va standart tovarlarni xarid qilish uchun elektron xarid platformalari yaratilgan. Samaradorlik jihatidan elektron xarid tizimining afzalliklari xaridlarda oshkoralik darajasini oshirish uchun ham foydalaniladi. Bu tizim davlat xizmatchilari va potesial yetkazib beruvchilar o‘rtasida noqonuniy aloqalar qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Janubiy Koreyada davlat xaridlarining oshkoraligi 2000 yillarining boshida milliy xarid tizimi joriy etilganidan so‘ng boshlangan. 2002 yilda Janubiy Koreyaning davlat xaridlari xizmati (PPS) va markaziy tashkilot agentligi KONEPSning to‘liq integratsiyalashgan elektron xarid tizimini ishga tushirdi. Bu tizim barcha xarid jarayonini elektron tarzda amalga oshirish (tenderda ishtirokchilarini bir vaqtda ro‘yxatdan o‘tkazilishi, shartnomalar va to‘lovlarni) va hujjatlar almashinuvini onlayn tarzda amalga oshiriladi. Barcha zaruriy ma‘lumotlarni olish, keng qamrovli xizmatlar ko‘rsatish, ma‘lumotlarni avtomatik tarzda to‘plash, shuningdek, tender ishtirokchilarining malakasi, yetkazib berish vato‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish uchun 140 dan ortiq tashqi tizimlarga ulanadi va kerakli ma‘lumotlarni yetkazib beradi. Bundan tashqari, tizim kerakli ma‘lumotlarni real vaqt oralig‘ida olish imkonini beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lumotlardan shuni anglashimiz mumkinki, G20 ga a‘zo bo‘lgan davlatlarda va Yevropa Ittifoqining deyarli barchasida davlat xaridlari oshkoralik va, ayniqsa, shaffoflik prinsiplariga tayanib amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham davlat xaridlari jarayonini tartibga soluvchi muhim hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, 2018 yilning 25 yanvarida qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun joriy yilning 10 apreldan rasman kuchga kirdi, shuningdek, soha rivoji uchun zarur bo‘lgan qarorlar qabul qilinmoqda.

Jumladan qisqa muddatda mazkur qonundagi kamchilik va xatolar bartaraf etilgan holda 2021 yilda yangi tahrirdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-

684- sonli Qonun qabul qilindi va joriy yil 24-iyuldan rasman kuchga kirdi. Davlat xaridlariga tadbirkorlik va kichik biznes sub‘ektlarini kengroq jalb qilish va ularning bu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning davlat va korporativ xaridlari bo‘yicha amaliyotini ko‘rib chiqar ekanmiz, yurtimizda bu sohani yanada takomillashtirish uchun taraqqiy etgan va rivojlangan mamlakatlar amaliyotini qo‘llash zarur ekanligini tushunishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi davrida davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha yangi dasturiy ta‘minotlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish, hujjatlar sonini kamaytirish, xarid jarayoning oshkoraligi va shaffofligini ta‘minlash davlatimiz rahbari olib borayotgan siyosatning asosiy me‘zonidir. Davlat xaridi sohasini rivojlantirish borasida mamlakatimizda qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar va ko‘rilayotgan choralar soha rivojiga erishishda asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda ko‘rilayotgan choralar salmog‘ini yanada oshirish, davlat xaridi va korporativ xaridlar jarayonini yanada takomillashtirish, bu orqali esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi, hamkorlik imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlarning, shu jumladan, Buyuk Britaniya,

Janubiy Koreya, Avstraliya kabi davlatlarda davlat xaridi tizimining faoliyati, xususiyatlari, funksiyalari, vazifalari, vakolatlari va davlatuchun ahamiyati borasidagi ilg'or tajribalarini chuqur o'rganish hamda ular orasidan mamlakatimizga mos keladiganlarini tanlash va qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu sohadagi tadqiqotlarni kengaytirish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абрамова Е., Ткаченко Б. (2015) Государственные закупки: направления развития. Обзор международных практик и анализ ситуации в Российской Федерации / Москва: Сектор, 11 с.
2. Андреева Л. (2009) “Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование” -М.:Волтер Клувер, с 41.
3. Burxonov U.A. (2010) “Davlat xaridi” O'quv qo'llanma, Toshkent .:Infocom.uz 10b.
4. Malikov T.S. (2018) Moliya. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod-moliya” 169 b.
5. Pulatov D.X. (2018) “Davlat xaridlarida xususiy sektorning hamkorligi” //Jamiyat va boshqaruv // Toshkent 1-son, b 102.
6. Падалка О. (2012) “Мировой опыт проведения государственных закупок в электронной форме” www.aeaep.com
7. Фогилев М. (2012) “Как будет развиваться рынок электронных торговых площадок” <http://ubr.ua>
8. Фиц Ю. (2013) “Совершенствование управления государственными закупками в Украине, Региональная экономика и управление” №1 (33), s 31.
9. Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'RQ-684-son.